

**TASAVVUF ATAMALARIGAGA OID
(ВАХОУДДИН НАҚШБАНД “АВРОД”И МИСОЛИДА)**

Raximova Nodira Kadirovna,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi
nodiraraxmanova1975@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Bahouddin Naqshbandning "Avrodi sharif", ya`ni duolar va zikrlar jamlangan risolasida qo`llanilgan tasavvufga oid terminlar ustida tilshunoslik aspektida ilmiy munozara yuritilgan. Risoladagi tasavvufga oid terminlarning izohi va sharhi borasida ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so`zlar: Avrod, termin, tasavvuf, ma`rifat, til, lug`at, lug`at boyligi, so`z.

**ИССЛЕДОВАНИЕ СУФИЙСКИХ ТЕРМИНОВ В «АВРОДЕ»
БАХАУДДИНА НАҚШБАНДА**

Аннотация. В данной статье рассматриваются термины, связанные с суфизмом, используемые в «Авроди Шарифе» Бахауддина Накибанда, сборнике молитв и воспоминаний, с лингвистической точки зрения. Высказаны научные мнения относительно объяснения и комментария суфийских терминов в трактате.

Ключевые слова: Аврод, термин, суфизм, просветление, язык, лексика, словарный запас, слово.

**A STUDY OF SUFI TERMS IN BAHAUDDIN
NAQSHBAND'S "AURODA"**

Annotation. This article examines the terms associated with Sufism used in Bahauddin Naqshband's Avrod Sharif, a collection of prayers and memoirs, from a linguistic point of view. Scholarly opinions are expressed regarding the explanation and commentary of Sufi terms in the treatise.

Keywords: Avrod, term, Sufism, enlightenment, language, lexicon, vocabulary, word.

Kirish. Tasavvuf ta`limotining naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshbandning "Zohirda xalq bilan, botinda Haq bilan, ya`ni dil ba yoru dast ba kor" shiori ostida so`fiylik ta`limotini yaratar ekan, uning bu ta`limoti so`fiylikning eng yuqori cho`qqisini egalladi va dunyo bo`yicha tez tarqaldi. Bahouddin Naqshband tez-tez takrorlab turadigan duo va zikrlarini, ya`ni avrodlarini uning murid va izdoshlari yozib borib, keyinchalik to`plam holiga keltirganlar.

“Avrod” (“Virdlar”) - rivoyatlarga ko`ra, Bahouddin Naqshband tushida Hazrat Rasululloh (s.a.v.)dan o`rgangan va keyinchalik uning muridlaridan Hamza ibn Shamshod tomonidan alifbo tartibida sharhlanib, kitob holiga keltirilgan duolar

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

jamlanmasidir. Avrodnı amalga oshirish, ya`ni, o`ziga xos ibodat turlarini (masalan, duo, zikr, yoki maxsus suralarni o`qish) yoki maxsus rituallarni bajarish orqali Allohdan yordam, madad va baraka so`rash yoki har bir ish uchun maxsus duolarni o`qish deb tushunilishi mumkin.

Asosiy qism. Naqshbandiya tariqatining “Avrodi sharif”i - bu Naqshbandiya tariqati a`zolarining ruhiy va ma`naviy kamolotiga yo`naltirilgan, maxsus zikr va duolardan iborat avroddir. Ushbu avrod tariqatning asosiy ta`limotlariga mos ravishda, Allohga yaqinlashish va ma`naviy kamolotga erishish uchun qo`llaniladi.

Naqshbandiyning “Avrodi sharif” asarida tasavvufiy terminlar muhim o'rın tutadi. Unda qo`llangan tasavvuf terminlari, tartib va amallar, tariqat a`zolarining ruhiy kamolotiga yordam berishga qaratilgan maxsus duo (allohga iltijo)lar va amallarni o`z ichiga oladi. Ular insonning ma`naviy yo`lini, Allohga bo`lgan muhabbatini va uning irodasiga bo`ysunishini ifodalaydi. Bu terminlar juda aniq va mazmunli bo`lib, har bir amal va ta`limotning ma`naviy ahamiyati katta.

Lumladan, “Avrod” asarida uchraydigan ba’zi muhim tasavvufiy terminlar izohiga ahamiyat qaratsak.

Zikr – Allohnı doimo eslash, qalb va til bilan uni zikr qilish. Naqshbandiylik tariqatida xufiya (yashirin) va jahriya (oshkora) zikr usullari mavjud. Maqsad: Alloh bilan yaqinlikka erishish, qalbni Allohga hushyor qilgan holda tozalash. Zikrning turlari:

- a) zikri jahr – oshkora (baland ovoz bilan) aytiladigan zikr. Bu usul yassaviylik, qodiriylik tariqatlarida keng tarqalgan;
- b) zikri xufiya – ichki (yashirin, qalb bilan) bajariladigan zikr. Naqshbandiylikda aynan shu turdagı zikr afzal hisoblanadi;
- v) zikri lisoniy – til bilan Allohnı ismlarini yoki Qur'on oyatlarini takrorlash;
- g) zikri qalbiy – ichki zikr, ya`ni Allohnı qalb bilan eslash va his qilish;
- c) zikri fe'liy – amaliy zikr, ya`ni butun hayotni Alloh roziligi yo`lida yuritish.

Zikrning tasavvufiy ta'siri haqida aytsak, tasavvufda zikr insonning ma`naviy poklanishi, qalbning yoritilishi (tajalliy), g'aflatdan uyg'onishi (ya qazo), va Allohga yaqinlashishi (qurb) vositasi sifatida tushuniladi.

Naqshbandiylikda zikr “xilvat dar anjuman”, ya`ni odamlar orasida bo'lsa ham, qalban Alloh bilan bo'lish holati bilan bog'liqdir. Bu naqshbandiylikning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, har qanday sharoitda Allohnı unutmaslikni anglatadi.

Robita – Murshid (shayx) bilan ruhiy bog'lanish. Tasavvufda robita turli shakkarda bo'lishi mumkin. Robitaning tasavvufiy ta'siri:

- ma`naviy poklanish – murid robita orqali murshidining nuri va ma'rifati bilan qalbini poklaydi.
- Muhabbat hosil qilish – robita orqali inson qalbida Alloh, Rasul va solih kishilarga bo`lgan muhabbat ortadi.
- Tarbiyaviy rol – ustoz bilan ruhiy bog'lanish muridning odobini, axloqini va ruhiy holatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Naqshbandiylikda robita. "Naqshbandiya"da "robita" atamasi murid (shogird) va shayx (ustoz) o'rtasidagi ma'naviy aloqani bildiradi. Bu rishta shogirdning qalbini poklash va shayxning ruhiy rahbarligi ostida Allohga murojaat qilish imkonini beradi. Naqshbandiylikda bu ruhiy yo'l dosh sifatida muhim ahamiyatga ega. Robita ham shogirdning shayxining ma'naviy borligi va quvvatiga e'tibor qaratishi, shayx o'gitlarini qalbi bilan qabul qilishidir. Bu shogirdning shayxining ruhiy rahbarligi ostida taraqqiyotga yordam beradigan yo'l deb hisoblanadi. "Naqshbandiya"da bunday ma'naviy aloqalar Allohga nisbatan chuqurroq muhabbat va ilmga erishish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Suhbat – Sohbat orqali ma'naviy o'sish va irshod (yo'lko'rsatish). "Suhbat tariqatning yarmini tashkil etadi" degan naqshbandiylik tamoyili mavjud.

Xilvat dar anjuman – "Jamoat ichida yolg'iz qolish", ya'ni odamlar orasida bo'lsa ham, qalban Alloh bilan bog'lanib yashash.

Tavajjuh – Qalbni Allohga burish, diqqatni Uning zikriga qaratish.

Suluk – Ruhiy sayr, ya'ni shaxsnинг tariqat yo'lida bosib o'tadigan ma'naviy yo'li.

Fano va baqo – fano – insonning o'z mavjudligini yo'qotib, Allohda erishishi; baqo – Alloh bilan boqiylik topish.

Murshid va murid – murshid – yo'l ko'rsatuvchi ustoz; murid – unga ergashuvchi shogird.

Tavakkul – faqat Allohga suyanish, unga tavakkal qilish.

Vird – kunlik ma'lum zikr va ibodat amaliyoti.

"Avrod" asari naqshbandiylikning ichki falsafasini aks ettirgan bo'lib, bu terminlar tariqatning asosiy amaliyotlari va maqsadlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, bu terminlarni uzoq davom ettirish mumkin. Aytish joizki, "Avrodi sharif"da qo'llanilgan tasavvuf terminlari har bir insonning ma'naviy kamolotiga erishish uchun muhimdir. Bu terminlar nafshi isloh qilish, Allohga yaqinlashish va ruhiy quvvatni o'stirishda muhim rol o'yndaydi. Tasavvufdagi mazkur amallar va ularning terminologiyasi insonni ruhiy poklikka va ishonchga yo'naltiradi, shuningdek, nafs va egoizmdan qutulishga yordam beradi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Нуриддинов Ж. Авроди Нақшбандия. – Т.: "Ўзбекистон халқаро Ислом Академияси" нашриёт - матбаа бирлашмаси, 2018.

2. Мұхаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Тасаввувф сирлари. Тошкент: "Мовароуннаҳр", 2000.

3. Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (Тўлдирилган қайта нашр). /Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи Г.Н. Наврӯзова. Т.: "Sano-standart", 2019. 112 бет.

4. <http://ferlibrary.uz/baouddin-nashband>

5. Шайх Мұхаммад Содиқ Мұхаммад Юсуф. Нақшбандия. Вазифалар Зикрлар. - Т.: "Hilol-Nashr", 2017.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

6. Абдулқаҳхор Шоший. Авлиёлар китоби. Тошкент. Фафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2018.

7. Rakhimova N.K. "AVROD" AS A SPIRITUAL SOURCE. Scientific journal. **ERUS**. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 339–342. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4125> ISSN 2181-3515. VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 12 OCTOBER 2023.

8. Rakhimova N.K. "AVRODI NAKSHBANDIYA" IS A BLESSED "SOURCE". **NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal** ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 6, ISSUE 9, Sep. -2020. Impact factorli jurnal <https://journalnx.com/journal-article/20151708>.

